

Javoblar + yechim

Insho yozish uchun mavzular:

1

“Alpomish” – qahramonlik dostoni.

2

“Alpomish” dostonining bugungi kundagi ahamiyati

Insho yozish uchun tavsiyalar:

1. Qiziqishlaringiz asosida yuqoridagi mavzulardan birini tanlang.
2. Tanlagan mavzungizni chuqur o‘rganib chiqing.
3. O‘ylaringizdagi fikrlarni tartiblang (masalan, qaysi fikrimni oldin, qaysi birini oldingi fikrimdan keyin joylashtiraman... kabi).
4. Fikrlaringizni dalillash uchun ko‘chirmalar yig‘ing.
5. Tanlagan mavzungiz asosida puxta reja tuzing.
6. Tezis (qisqa ifoda) yozib oling.
7. Yozganlaringizni tahrirlang.
8. Oqqa ko‘chiring.
9. Qayta tahrirlang.
10. Taqdim eting.

Baholash mezonlari (50 ball)

Savodxonlik (15 ball)		1 -2 ta	3 – 4 ta	5 – 6 ta	7 –8 ta
1. Imlo xatolari	10 ball	10 – 9 ball	8 – 7 ball	6 – 4 ball	3 – 1 ball
2. Tinish belgilari	3 ball	3 ball	2 ball	1 ball	
3. Husnixat	2 ball				
matn aniq, ravon, tushunarli hamda husnixat qoidalariga rioya qilingan holda yozilgan bo‘lsa –	2 ball				
husnixat noaniq, harflar qiyshaygan, ravon o‘qish qiyin, shuningdek, harflar bo‘yalgan bo‘lsa –	1 ball				

Insho mazmuni va xulosa (35 ball)

Inshoni tavsiyalar asosida, to'g'ri ketma-ketlikda yozgan, fikrlarini tartib bilan ifoda etgan, mavzuga mos reja tuza olgan, qarashlarini asoslab bergan, matnni tahrirlagan, shuningdek, ishni o'z fikr-mulohazalari asosida boyitgan, dostonning bugungi kundagi ahamiyatiga to'xtalgan hamda zamon bilan bog'lay olgan, xulosalarini aniq bayon qila olgan bo'lsa –	35 – 30 ball
Inshoni tavsiyalar asosida, to'g'ri ketma-ketlikda yozgan, fikrlar tartibida biroz chalkashliklar kuzatilgan, ammo har bir fikr asoslangan, mavzuga mos reja tuza olgan, qarashlarini asoslab bergan, matnni tahrirlagan; ishda o'z fikr-mulohazalari to'liq aks etmagan bo'lsa-da, dostonning bugungi kundagi ahamiyatiga to'xtalgan hamda zamon bilan bog'lay olgan, xulosalarini bayon qila olgan bo'lsa –	29 – 23 ball
Inshoni yozish mobaynida tavsiyalardan to'liq foydalanmagan, shu sabab fikrlar tartibida biroz chalkashliklar kuzatilgan, reja mavzuni to'liq ochib bera olmagan bo'lsa-da, o'z qarashlarini qisman asoslab bergan; matnni tahrirlagan, ammo ishda o'z fikr-mulohazalari to'liq aks etmagan, dostonning bugungi kundagi ahamiyatiga to'xtalgan, ammo zamon bilan bog'lay olmagan; xulosalarini bayon qila olgan bo'lsa –	22 – 15 ball
Inshoni yozish mobaynida tavsiyalardan to'liq foydalanmagan, shu sabab fikrlar tartibida biroz chalkashliklar kuzatilgan, reja mavzuni to'liq ochib bera olmagan, o'z qarashlarining ayrimlari asoslangan, ayrimlari asoslanmagan, matnni tahrirlagan, ishda o'z fikr-mulohazalari aks etmagan, dostonning bugungi kundagi ahamiyatiga to'xtalmagan, zamon bilan bog'lay olmagan, xulosalari ham juda jo'n bayon qilingan bo'lsa –	14 – 7 ball
Inshoni yozish mobaynida tavsiyalardan yetarlicha foydalana olmagan, shu sabab fikrlar tartibida chalkashliklar kuzatilgan, reja mavzuni ochib bera olmagan, o'z qarashlarining ayrimlari asoslangan, ayrimlari asoslanmagan, matnni tahrirlamagan, ishda o'z fikr-mulohazalari aks etmagan, dostonning bugungi kundagi ahamiyatiga to'xtalmagan, zamon bilan bog'lay olmagan, xulosa qismi yozilmagan bo'lsa –	6 – 1 ball